

A PRACTICAL STUDY OF THE CHARACTERISTICS OF DEMONSTRATIVENESS, ENTHUSIASM AND AGGRESSIVENESS IN THE BEHAVIOR OF ADOLESCENTS

Usmanov Rahimjon Rakhmonovich Teacher of the External Department of FarDU

Abstract: the article is about the disappearance of characteristics such as enthusiasm and inactivity in children during adolescence. Adolescent girls and boys experience sudden changes in behavior that they don't want. The character of a teenager aged 10 to 15 years shows demonstrativeness. The severity of aggressive reactions in adolescents is related to self-esteem in adolescents. It can be said that the article states that the higher the level of self-esteem in adolescents, the higher the general aggression and the components of aggression.

Key words: adolescent, child, youth, aggression, demonstrativeness, characteristics, individual, self-esteem, behavior, impression.

O'smirlik davri yosh davrlar psixologiyasidan bizga ma'lumki eng o'g'ir davr xisoblanadi bu davrda bolalarda g'ayratlilik, nomoishkorlik kabixususiyatlar yaqqol nomoyon bo'ladi. O'smirlik davridagi qiz va o'g'il bolalarda o'zlari xoxlamagan tarzda fel atvorida keskin burilishlar kuzatiladi. 10 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'smirning yosh psixologik xususiyatlari namoyishkorlik xususiyati xarakterida aks etadi. O'smirlardagi tajovuzkor reaksiyalarning zo'ravonlik darajasi o'smirlardagi o'z o'sini baholash bilan bog'liq. Aytish mumkinki o'smirlarda o'z o'zini hurmat qilish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, undagi umumiy tajovuzkorlik va uning tarkibiy qismlari ham shunchalik uqori bo'ladi. Bu munosabat tajovuzning instrumental shakliga ham, tajovuzning boshqa dushmanlik shakliga ham birdek xosdir. A.A.Rean (1997)ning tajribasi shuni ko'rsatadiki, 14-17 yoshdagi o'smirlarda jismoniy tajovuz darajasi shaxsning umumiy o'z o'zini baholash darajasi bilan bog'liq. O'z o'zini baholash darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, jismoniy tajovuzkorlikni namoyon qilish tendensiyasi shunchalik aniq. Shuningdek J.K.Dandaryova va A.A.Rean maxsus ijtimoiy tadqiqot o'tkazilgan tadqiqot natijasiga ko'ra, o'z o'ziga bo'lgan bahoning tashqi ijtimoiy olam ziddiyatli holati, boshqacha qilib aytganda o'smirdagi o'z o'ziga bergan bahoning tashqi ijtimoiy olamdan unga berilgan baho bilan nomutanosibligi, o'smirda uning tengdoshlarga nisbatan tajovuzkorlikning yuqori darajasi bo'lishini sabab bo'ladi. Tajovuzkorlikning nisbiy shakli va negativlikda bu yaqqol ko'zga tashlanadi. O'smirda agressivlikning namoyon bo'lishi yoki uchun qanday shakilda namoyon bo'lishi u yashab turgan oilaviy muhitga, tengdoshlar jamoasiga, makromuhit (ta'lim muassasasi), u yashayotgan jamiyatning urf-odat va an'analariga va unga oqib kelayotgan information oqimning turiga bog'liq. Bunda oila hal qiluvchi rol ni bajaradi. Bu oilada turmush o'rtoqlarning bir biriga munosabati, ota-ona va bola o'rtasidagi munosabat, oiladagi axloqiy qoidalar, dunyoqarash va oilaning rejaları hamda maqsadlarini o'z ichiga oladi.

Biz, ilmiy tadqiqot ishida o'smirlarda namoyishkorlik, g'ayratlilik va tajovuzkorlik xususiyatlarining kelib chiqish sabablari, ularning namoyon bo'lishi ko'rinishlari va oqibatları nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi. Shuningdek o'smirlardagi namoyishkorlik, g'ayratlilik va tajovuzkorlik xususiyatlarining namoyon bo'lishini tadqiqot guruhida va nazorat guruhida tadqiqotgacha bo'lgan davri diagnostika qilindi va olingan natijalar qayta ishlandi, xulosalandi. Bunda dastlab ularda K.Leongardning

“Xarakter aksentuatsiyasi” so’rovnomasini o’tkazildi. So’rovning natijalari tahlil qilindi. Shundan so’ng respondentlar bilan ilmiy treninglar olib borildi. Olib borilgan tadqiqot ishlaridan so’ng tadqiqot guruhidagi respondentlarda K.Leongardning “Xarakter aksentuatsiyasi” so’rovnomasini qaytadan o’tkazildi. Quyidagi 1-jadvalda tadqiqot guruhidagi respondentlardan olingan so’rovnomaning tadqiqotgacha va tadqiqotdan keyingi natijalari keltirilgan.

1-jadval


Tadqiqot guruhidagi K.Leongardning “Xarakter aksentuatsiyasi” metodikasining dastlabki va takroriy natijalari

t/r	Tiplar nomi	Tadqiqotgacha natija		Tadqiqotdan keying natija	
		Respondentlar soni	Natija foizlarda	Respondentlar soni	Natija foizlarda
1	Namoyishkor tip	123	82,7 %	68	45,2 %
2	Ginaxon tip	78	52 %	52	34,4 %
3	Pedantik (rasmiyatchi) tip	82	55 %	57	38 %
4	Qo’zg’oluvchan tip	72	48,7 %	65	43,3 %
5	Gipertim tip	91	61,7 %	76	51 %
6	Distim tip	83	55,7 %	60	40 %
7	Xavotirli-qo’rqoq tip	79	53,4 %	58	39,6 %
8	Hissiyotli tip	81	55,3 %	62	41,8 %
9	Tsiklotim tip	88	60,2 %	68	45,4 %
10	Affektiv tip	86	60,3 %	74	49,6 %

Olingan natijalarda ko’rinib turibdiki respondentlarning eng katta qismida 82,7%da namoyishkorlik kuchli bo’lgan bo’lsa endi ularda bu ko’rsatkich 45,2%ga pasaygani aniqlandi. Tsiklotim tipiga mansub sinaluvchilar 60,2 % bo’lgan bo’lsa endi ular 45,4%ni ko’rsatmoqda. Pedant va hissiyotli tiplari deyarli bir xil 55 % ni tashkil qilgan bo’lsa endi ular 38% pedant tipi 39,6 % hissiyotli tipini tashkil qilmoqda. Xavotirli tipi 53,4 %dan 39,6% ga kamaygani aniqlandi. Ginaxon tipi esa 52%ni tashkil qilmoqda. Qo’zg’oluvchan tipi 48,7 %dan 43,3% ga kamaygani o’rinmoqda. Shuningdek gipertim tipiga mansub sinaluvchilar ham 61,7 %dan 51% ga kamaygani aniqlandi. Bundan tashqari tsiklotim tipiga mansub sinaluvchilar ham 62,2 %dan 45,4% ga kamaygani aniqlandi. O’z navbatida affektiv tipiga mansub sinaluvchilar ham 60,3 %dan 49,6% ga kamaygani aniqlandi. Ushbu foizlar diagrammada quyidagicha aks etmoqda(1-diagramma).

1-diagramma

Tadqiqot guruhidagi K.Leongardning “Xarakter aksentuatsiyasi” metodikasining dastlabki va takroriy natijalari foiz hisobida



Ushbu natijalarni nomustaqil guruhlar ko’rinishida T-styudent uslubidan foydalanilgan holda SPSS.16 dasturida statistik tahlil qilindi va quyidagi natijalar

olindi (1- jadval).

2-jadval

K.Leongardning “Xarakter aksentuatsiyasi” metodikasining tadqiqotdan avvalgi va keyingi natijalarining statistik tahlili

t/r	Natijalar	O’rtacha qiymati μ	N	O’rtacha og’ish \bar{X} (dispersiya)	T
1	Tadqiqotgacha bo’lgan natija	781	150	305,7	0,003*
2	Tadqiqotdan keyingi natija	555,5	150	138,6	

Yuqoridagi jadvalda ko’rinib turibdiki dispersiya ko’rsatkichi dastlabki natijada $X = 305,7$ ni tashkil etgan bo’lsa takroriy natijada $X = 138,6$ ga pasayganini ko’rsatmoqda. Namoyishkorlikning o’rtacha arifmetik qiymati tadqiqotdan avval 781,0 ni tashkil etgan bo’lsa, tadqiqotdan keyin bu ko’rsatkich 555,5 ni tashkil etmoqda. Bu raqamlarning kamayishi o’smirdagi namoyishkorlikning kamayishini bildiradi. O’z navbatida o’tadqiqotdan avvalgi 305,7 ko’rsatkichga ega bo’lgan o’rtacha og’ish ham tadqiqotdan keyin 138,6 ga kamaygani namoyishkorlikning kamayishini anglatadi. Jadvaldagi $p = 0,003^*$ korsatkichi esa 0,05 dan past ya’ni $p < 0,05$ dan kichik. Demak o’smirlardagi natijalarining treningdan olingi ko’rsatkichi bilan treningdan keying ko’rsatkichi o’rtasida farq mavjud va natijalar bir xil emas.

Tadqiqot so’ngida tadqiqot guruhidagi respondentlar xulqidagi o’zlarishlarni solishtirish maqsadida nazorat guruhida ham K.Leongardning “Xarakter aksentuatsiyasi” so’rovnomasi qaytadan o’tkazildi. Quyidagi 5-jadvalda nazorat guruhidagi respondentlardan olingan so’rovnomaning tadqiqotgacha va tadqiqotdan keyingi natijalari keltirilgan.

3-jadval

Nazorat guruhidagi K.Leongardning “Xarakter aksentuatsiyasi” metodikasining dastlabki va takroriy natijalari foiz hisobida


t/r	Tiplar nomi	Tadqiqotgacha natija		Tadqiqotdan keying natija	
		Respondentlar soni	Natija foizlarda	Respondentlar soni	Natija foizlarda
1	Namoyishkor tip	88	80 %	87	79 %
2	Ginaxon tip	55	50 %	53	48 %
3	Pedantik (rasmiyatchi) tip	57	52 %	54	49 %
4	Qo’zg’oluvchan tip	54	49 %	56	51 %
5	Gipertim tip	66	60 %	66	60 %
6	Distim tip	63	57,4 %	64	58 %
7	Xavotirli-qo’rqoq tip	64	55 %	61	55 %
8	Hissiyotli tip	58	53,6 %	56	51 %
9	Tsiklotim tip	62	57 %	63	57,5 %
10	Affektiv tip	63	58,6 %	61	55,4 %

Olingan natijalarda ko’rinib turibdiki dastlabki natijalarga ko’ra nazorat guruhidagi respondentlarning 88 nafarida ya’ni 80 % da namoyishkorlik tipi yuqori darajada ekanligi aniqlangan. Takroriy natijaga ko’ra bu vakillari 87 nafarni ya’ni 78%ni tashkil etmoqda. Dastlabki natijalarga ko’ra nazorat guruhidagi respondentlarning 55 nafarida ya’ni 50 % da ginaxon tipi yuqori darajada ekanligi aniqlangan. Takroriy natijaga ko’ra bu vakillari 55 nafarni ya’ni 50%ni tashkil etmoqda. Dastlabki natijalarga ko’ra nazorat guruhidagi respondentlarning 57 nafarida ya’ni 52 % da pedantik tipi yuqori darajada ekanligi aniqlangan. Takroriy natijaga ko’ra bu vakillari 54 nafarni ya’ni 49%ni tashkil etmoqda. Dastlabki natijalarga ko’ra nazorat guruhidagi respondentlarning 54 nafarida ya’ni 49 % da qo’zg’oluvchan tipi yuqori darajada ekanligi aniqlangan.

Takroriy natijaga ko'ra bu vakillari 56 nafarni ya'ni 51%ni tashkil etmoqda. Dastlabki natijalarga ko'ra nazorat guruhidagi respondentlarning 66 nafarida ya'ni 60 % da gipertim tipi yuqori darajada ekanligi aniqlangan. Takroriy natijaga ko'ra bu vakillari 66 nafarni ya'ni 60%ni tashkil etmoqda. Dastlabki natijalarga ko'ra nazorat guruhidagi respondentlarning 63 nafarida ya'ni 57,4 % da distim tipi yuqori darajada ekanligi aniqlangan. Takroriy natijaga ko'ra bu vakillari 64 nafarni ya'ni 58%ni tashkil etmoqda. Dastlabki natijalarga ko'ra nazorat guruhidagi respondentlarning 64 nafarida ya'ni 55 % da xavotirli-qo'rqqoq tipi yuqori darajada ekanligi aniqlangan. Takroriy natijaga ko'ra bu vakillari 61 nafarni ya'ni 55%ni tashkil etmoqda. Dastlabki natijalarga ko'ra nazorat guruhidagi respondentlarning 64 nafarida ya'ni 54 % da hissiyotli tipi yuqori darajada ekanligi aniqlangan. Takroriy natijaga ko'ra bu vakillari 61 nafarni ya'ni 51%ni tashkil etmoqda. Dastlabki natijalarga ko'ra nazorat guruhidagi respondentlarning 62 nafarida ya'ni 57 % da tsiklotim tipi yuqori darajada ekanligi aniqlangan. Takroriy natijaga ko'ra bu vakillari 63 nafarni ya'ni 57%ni tashkil etmoqda. Dastlabki natijalarga ko'ra nazorat guruhidagi respondentlarning 63 nafarida ya'ni 58 % da affektiv tipi yuqori darajada ekanligi aniqlangan. Takroriy natijaga ko'ra bu vakillari 61 nafarni ya'ni 55%ni tashkil etmoqda. Ushbu foizlar diagrammada quyidagicha aks etmoqda(9-diagramma).

2-diagramma

Nazorat guruhida K.Leongardning "Xarakter aksentuatsiyasi" metodikasining dastlabki va takroriy natijalari foiz hisobida



Ushbu natijalarni nomustaqil guruhlar ko'rinishida T-student uslubidan foydalanilgan holda SPSS.16 dasturida statistik tahlil qilindi va quyidagi natijalar olindi (10- jadval).

3-jadval

Nazorat guruhida K.Leongardning "Xarakter aksentuatsiyasi" metodikasining dastlabki va takroriy natijalarining statistik tahlili

t/r	Natijalar	O'rtacha qiymati μ	N	O'rtacha og'ish \bar{X} (dispersiya)	T
1	Tadqiqotgacha bo'lgan natija	63,0	110	9,67	0,147
2	Tadqiqotdan keyingi natija	62,1	110	9,80	

Yuqoridagi jadvalda ko'rinib turibdiki dispersiya ko'rsatkichi dastlabki natijada $X = 9,67$ ni tashkil etgan bo'lsa takroriy natijada $X = 9,80$ ga pasayganini ko'rsatmoqda. Namoyishkorlikning o'rtacha arifmetik qiymati tadqiqotdan avval 63,0 ni tashkil etgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin bu ko'rsatkich 62,1 ni tashkil etmoqda. Bu raqamlarda sezilarli o'zgarishlar ko'zga tanlanmadi. Jadvaldagi $p=0,147$ korsatkichi esa 0,05 dan yuqori ya'ni $p < 0,05$ dan katta. Demak o'smirlardagi natijalarining dastlabki ko'rsatkichi bilan takroriy ko'rsatkichi o'rtasida farq mavjud emas.

Ilmiy tadqiqot ishining tadqiqotgacha bo'lgan natijalaridan kelib chiqib, tajovuzkorlik hissini kamaytirib, o'rniga g'ayratlilik hissini uyg'otuvchi, ezgulikka


va yaxshilikka chorlovchi treninglar o'tkazildi. Tadqiqot davomida respondentlardagi tajovuzkorlik darajasining kamayganini raqamlarda ko'rish maqsadida T.Lirining "Shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish metodikasi" takroran olindi. Ushbu metodika bo'yicha olingan natijalar quyidagi 11- jadvalda keltirildi.

4-jadval
T.Lirining "Shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish metodikasi" bo'yicha natijalar

№	Hislar	Tadqiqotgacha		Tadqiqotdan keyin	
		O'rtacha ball	Respondentlar soni	O'rtacha ball	Respondentlar soni
1.	ustunlik, hokimiyatga intilish	9	18	7,5	8
2.	xudbinlik, mustaqillik	9,5	23	8,2	11
3.	tajovuzkor, g'ayratli,	13	26	8,5	9
4.	ishonchsiz, shubhalanuvchan	8	9	6,5	8
5.	uyatganlik, yuvoshlik	6,5	12	6	10
6.	ishonuvchanlik, tobelik	7	8	6	8
7.	rahimdillik, hamkorlik	7,5	12	6,5	11
8.	xushmuomalalik, fidoyilik	6	14	5	13

Yuqoridagi jadvalga ko'rinib turibdiki, utunlik tipi tadqiqotgacha 18 nafar respondentda yuqori natijani ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin bu ko'rsatkich 8 nafarni tashkil etmoqda. Xudbinlik tipi tadqiqotgacha 23 nafar respondentda yuqori natijani ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin bu ko'rsatkich 8,2 nafarni tashkil etmoqda. Tajovuzkorlik tipi tadqiqotgacha 26 nafar respondentda yuqori natijani ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin bu ko'rsatkich 8,5 nafarni tashkil etmoqda. Ishonchsizlik tipi tadqiqotgacha 9 nafar respondentda yuqori natijani ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin bu ko'rsatkich 8 nafarni tashkil etmoqda. Uyatganlik tipi tadqiqotgacha 12 nafar respondentda yuqori natijani ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin bu ko'rsatkich 10 nafarni tashkil etmoqda. Tobelik tipi tadqiqotgacha 8 nafar respondentda yuqori natijani ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin bu ko'rsatkich 8 nafarni tashkil etmoqda. Rahimdillik tipi tadqiqotgacha 12 nafar respondentda yuqori natijani ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin bu ko'rsatkich 11 nafarni tashkil etmoqda. Fidoyilik tipi tadqiqotgacha 14 nafar respondentda yuqori natijani ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin bu ko'rsatkich 13 nafarni tashkil etmoqda. Agar yuqoridagi 12-jadvaldagi T.Lirining "Shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish metodikasi" bo'yicha olingan natijalarga tayanadigan bo'lsa, 2-bosqichida adaptiv hislarga sharxi quyidagicha amalga oshiriladi.

12-diagramma



Yuqoridagi diagrammadan kelib chiqib aytish mumkinki, respondentlarda ustunlik va homiyatga intilish hislari tadqiqotdan avval 9 ballni tashkil etib xulq atvor chegarasida ekanligi aniqlangan bo'lsa tadqiqotdan keyin bu hislar 7,5 ballni tashkil etib, xulq atvor chegarasidan past natija qayd etildi. Xudbinlik va mustaqillik hislari tadqiqotdan avval 9,5 ballni tashkil etib, bu hislar xulq-atvor chegarasidan yuqorida ekanligi aniqlangan bo'lsa, tadqiqotdan keyin bu hislar 8,2 ballni qayd etib, xulq atvor chegarasidan past natija qayd etildi. Tajovuzkorlik va g'ayratlilik tadqiqotdan avval 13 ballni tashkil etib, bu hislar xulq-atvor chegarasidan yuqorida ekanligi aniqlagan edi. tadqiqotdan keyin bu hislar bu hislar 8,5 ballni qayd etib, xulq atvor chegarasidan past natija qayd etildi. Ishonchsiz, shubhalanuvchan hislari tadqiqotdan avval 8 ballni qayd etib, xulq-atvor chegarasidan past natijani ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin bu hislar bu hislar 6,5 ballni qayd etdi. Uyatganlik, yuvoshlik hislari tadqiqotdan avval 6,5 ballni qayd etib, xulq-atvor chegarasidan past natijani ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin bu hislar 6 ballni qayd etdi. Ishonuvchanlik, tobelik hislari tadqiqotdan avval 7 ballni qayd etib, xulq-atvor chegarasidan past natijani ko'rsatgan bo'lsa tadqiqotdan keyin bu hislar 6 ballni qayd tashkil etdi. Rahimdillik, hamkorlik hislar tadqiqotdan avval 7,5 ballni qayd etib, xulq-atvor chegarasidan past natijani ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin bu hislar 6,5 ballni tashkil etdi. Xushmuomalalik hisi tadqiqotdan avval 6 ballni qayd etib, xulq-atvor chegarasidan past natijani ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin bu hislar 5 ballni qayd etdi. Yuqoridagi tadqiqotgacha bo'lgan natijalar va tadqiqotgdan keying natijalarini nomustaqil guruhlar ko'rinishida T-student uslubidan foydalanilgan holda SPSS.16 dasturida statistik tahlil qilindi va quyidagi natijalar olindi (5- jadval).

5-jadval

T.Lirining Shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish metodikasi bo'yicha tadqiqotgacha va tadqiqotdan keyingi natijalarning statistik tahlili

t/r	Natijalar	O'rtacha qiymati μ	N	O'rtacha og'ish \bar{X} (dispersiya)	T
1	Tadqiqotgacha natijalar	8,31	150	2,23	0,002*
2	Tadqiqotdan keying natijalar	6,77	150	1,19	

Yuqoridagi jadvalda ko'rinib turibdiki, o'smirlardagi dispersiya ko'rsatkichi esa dastlabki natijada $\bar{X}=2,23$ ni tashkil etgan bo'lsa, takroriy natijada $\bar{X}=1,19$ ga pasayganini ko'rsatmoqda. Tajovuzkorlikning o'rtacha arifmetik qiymati tadqiqotdan avval 8,31 ni tashkil etgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin bu ko'rsatkich 6,77 ni tashkil etmoqda. Bu raqamlarning kamayishi o'smirdagi tajovuzkorlikning kamayishini bildiradi.

Bu yerda $t=0,002^{**}$ ga teng. Ushbu korsatkichi esa 0,05 dan kichik ya'ni $p<0,05$ dan kichik. O'smirlarda natijalarining treningdan olingi natija bilan treningdan keying natija o'rtasida farq mavjud. Demak o'smirlardagi natijalarining treningdan olingi ko'rsatkichlari bilan treningdan keying ko'rsatkichlari o'rtasida farq mavjud va natijalar bir xil emas. 10-jadvalda ma'lumotlar tajovuzkorlikning tadqiqotdan avvalgi natijalari tadqiqotdan so'ng pasayganini bildirs, $p<0,05$ ko'rsatkichi esa tadqiqotdan avvalgi natijalarning tadqiqotdan keyin haqiqatdan ham o'zgarganini anglatadi.

Ilmiy tadqiqot ishining tadqiqotgacha bo'lgan natijalaridan kelib chiqib, tajovuzkorlik hissini kamaytirib, o'rniga g'ayratlilik hissini uyg'otuvchi, ezgulikka va yaxshilikka chorlovchi treninglar o'tkazildi. Tadqiqot davomida respondentlardagi tajovuzkorlik darajasining kamayganini raqamlarda ko'rish maqsadida T.Lirining

“Shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish metodikasi” takroran olindi. Qo’lgan kiritilgan natijalar qayta ishlendi va tahlil qilindi. O’z navbatida ushbu natijalarni solishtirish maqsadida nazorat guruhida ham natijalar takroran olindi. Ammo qoidaga muvofiq nazorat guruhida bunday treninglar o’tkazilmadi. Ushbu metodika bo’yicha nazorat guruhidan olingan natijalar quyidagi 6- jadvalda keltirildi.

6-jadval

Nazorat guruhining T.Lirining “Shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish metodikasi” bo’yicha natijalar

№	Hislar	Dastlabki		Takroriy	
		O’rtacha ball	Respondentlar soni	O’rtacha ball	Respondentlar soni
1.	ustunlik, hokimiyatga intilish	9	16	9	15
2.	xudbinlik, mustaqillik	9,5	21	9	22
3.	tajovuzkor, g’ayratli,	13,5	25	13	23
4.	ishonchsiz, shubhalanuvchan	8	8	8	9
5.	uyatchanlik, yuvoshlik	7	11	7	10
6.	ishonuvchanlik, tobelik	6,5	7	7	8
7.	rahimdillik, hamkorlik	7	10	6,5	9
8.	xushmuomalalik, fidoyilik	6,5	11	6	9

Yuqoridagi jadvalga ko’rinishidagi, utunlik tipi tadqiqotgacha 16 nafar respondentda yuqori natijani ko’rsatgan bo’lsa, tadqiqotdan keyin bu ko’rsatkich 15 nafarni tashkil etmoqda. Xudbinlik tipi tadqiqotgacha 21 nafar respondentda yuqori natijani ko’rsatgan bo’lsa, tadqiqotdan keyin bu ko’rsatkich 22 nafarni tashkil etmoqda. Tajovuzkorlik tipi tadqiqotgacha 25 nafar respondentda yuqori natijani ko’rsatgan bo’lsa, tadqiqotdan keyin bu ko’rsatkich 23 nafarni tashkil etmoqda. Ishonchsizlik tipi tadqiqotgacha 8 nafar respondentda yuqori natijani ko’rsatgan bo’lsa, tadqiqotdan keyin bu ko’rsatkich 9 nafarni tashkil etmoqda. Uyatganlik tipi tadqiqotgacha 11 nafar respondentda yuqori natijani ko’rsatgan bo’lsa, tadqiqotdan keyin bu ko’rsatkich 10 nafarni tashkil etmoqda. Tobelik tipi tadqiqotgacha 7 nafar respondentda yuqori natijani ko’rsatgan bo’lsa, tadqiqotdan keyin bu ko’rsatkich 8 nafarni tashkil etmoqda. Rahimdillik tipi tadqiqotgacha 10 nafar respondentda yuqori natijani ko’rsatgan bo’lsa, tadqiqotdan keyin bu ko’rsatkich 9 nafarni tashkil etmoqda. Fidoyilik tipi tadqiqotgacha 11 nafar respondentda yuqori natijani ko’rsatgan bo’lsa, tadqiqotdan keyin bu ko’rsatkich 19 nafarni tashkil etmoqda.

Olib borilgan metodikalar taxlilidan shuni ko’rishimiz mumkinki, erkak jinsli respondentlarda, ayol jinsli respontentlarga qaraganda yuqori natijalar xar ikkala testga ko’ra aniqlandi, ularda yani erkaklarda dominantly, Tajovuzkorlik va o’ta manmanlik shkalalari baland ekanligini, buning yaqqol sababi qilib esa o’zbek oilalaridagi tarbiyani ko’rishimiz mumkin, chunki bizda o’zbek oilalarida qiz bolalarni tarbiyalashda ko’proq axloqiy masalalariga etibor qaratiladi ya’ni qiz bolaga muloyimlik, xushmomilalik o’rgatilib, kuchli jins vakillariga bo’ysunishlari uqtirilsa, o’gil boalar tarbiyasida esa biroz boshqacha yondashuvni amalda qo’llaydilar, ularni kuchli, qo’rqmas, bir so’zli, aytganini qildiradigan qilib tarbiya beradilar. Bizning nazarimizcha manashu tarbiya jarayonidagi bu yondashuvlar test natijalari erkak jinsli respondentlarda baland chiqishiga sabab bo’ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

Higgins P. Understanding Diviance / P. Higgins, R. Butler. – McGraw-Hill Book Company, 1982

Mohinur D., Rahimjon U. A STUDY OF MEMORY PROCESSES AND THEIR DEVELOPMENT IN PRESCHOOL //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – T. 5. – C. 62-65.

Mohinur, D., & Rahimjon, U. (2022). A STUDY OF MEMORY PROCESSES

AND THEIR DEVELOPMENT IN PRESCHOOL. Uzbek Scholar Journal, 5, 62-65.

Mohinur, Djalolova, and Usmanov Rahimjon. «A STUDY OF MEMORY PROCESSES AND THEIR DEVELOPMENT IN PRESCHOOL.» Uzbek Scholar Journal 5 (2022): 62-65.

Rahim U. SOCIAL FACTORS OF THE INTERDEPENDENCE OF MENTAL AND PHYSICAL ACTIVITY //Archive of Conferences. – 2021. – Т. 25. – №. 1. – С. 6-7.

Rahim, U. (2021, May). SOCIAL FACTORS OF THE INTERDEPENDENCE OF MENTAL AND PHYSICAL ACTIVITY. In Archive of Conferences (Vol. 25, No. 1, pp. 6-7).

Rahim, Usmanov. «SOCIAL FACTORS OF THE INTERDEPENDENCE OF MENTAL AND PHYSICAL ACTIVITY.» Archive of Conferences. Vol. 25. No. 1. 2021.

V.Karimova Psixologiya Toshkent 2014 y 84- bet

Xakimova I.M. "Deviant xulq atvor psixologiyasi" o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi IV akademiyasi 2013

Z.Nishanova, D.Abdullayeva, G.Baykunosova – "O'smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi" Toshkent 2015 9 bet

А. П. Краковский Содержание возрастного, полового и типолог. в личности младшего и старшего подростка- Москва : Педагогика, 1970. - 73 с

А. П. Краковский Содержание возрастного, полового и типолог. в личности младшего и старшего подростка- Москва : Педагогика, 1970. - 71 с

А. П. Краковский Содержание возрастного, полового и типолог. в личности младшего и старшего подростка- Москва : Педагогика, 1970. - 82 с

Бэрон Р., Ричардсон Д. Агрессия. — СПб: Питер, 2001. ISBN 5-887-82294-5 ББК 88.6 УДК 159.9:612.821.3 32 с

В.И.Кирпичев «Физиология и гигиена подростка» - Академия 2008 УДК 613.956(075.8) 102 с

Г. В. Орлова – Я косепция студента в контексте его жизнедеятельности УДК 159.923.2-057.875

Головьев Л.А., Рибалко Е.Ф., «Практикум по возрастной психологии» изд., Санкт-Петербург, «Реч», 2002 г, 683 с

Даровских О. Н., Никитина Е. Л. Особенности личности у подростков с демонстративным поведением Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2016. – Т. 28. – С. 121–123

Дюркгейм Э. Норма и патология / Э. Дюркгейм // Социология преступности. – М., 1996. – С. 60-64

ТАЛАБАЛАРДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Файзиева Мавлуда Худаяровна

Психология фанлари номзоди, доцент Қарши Давлат университети

Аннотация: Мақолада замонавий жамиятда қадриятлар трансформациясининг вужудга келиш манбаалари, қадриятлар трансформациясининг илмий ҳамжамиятда ўрганилиши даражаси, ижтимоий механизмлари ва бу йўналишдаги тадқиқотларнинг муҳим илмий аҳамиятга эга эканлиги ёритилган. Шу билан бирга мазкур мақолада талабаларда психологик ҳимояни шакллантиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари ҳақида назарий ва амалий жиҳатларига батафсил тўхталинганлиги билан алоҳида аҳамиятлидир. Шахсни психологик ҳимоя қилиш фаолияти унинг махсус механизмлари орқали амалга оширилади шу билан бирга психик шикастланиш вазиятида ҳимоя механизмлари ахборот филтрлари сифатида ўзига хос қўринишда намоён бўлади; ахборотни тартибсизлаштириш ёки рад этиш ёки бузиб ташлаш ёки бошқа бир маъқулроғи билан алмаштириш тарзида ифодаланади.. Психологик ҳимоя механизмларининг ички хусусиятлари, психология йўналиши талабаларининг тажриба гуруҳида копинг-хулқ-атвор стратегиясини тақсимланиши. масалаларига ҳам мақолада урғу берилган, психология йўналиши талабаларининг тажриба гуруҳида копинг-хулқ-атвор стратегиясини тақсимланиши жиҳатлари ҳам мазкур мақолада таҳлил этилган.

Калит сўзлар: қадрият, қадриятлар тизими, ижтимоий қадриятлар, қадриятлар трансформацияси, маданий ўзлик, метаморфозия.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ОСОБЕННОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ У СТУДЕНТОВ

Файзиева Мавлуда Худаяровна,

кандидат психологических наук, доцент Каршинский государственный университет

Аннотация: В статье описаны источники ценностной трансформации в современном обществе, уровень изучения ценностной трансформации в научном сообществе, социальные механизмы и исследования в этом направлении.